

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MESXETI TURKLARINING HUDUDIIY TARAQQIYOTDAGI O'RNI TARIXI (O'RTA VA QUYY ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA)

Saparbayeva Erkinoy Davlatbayevna

Buxoro davlat universiteti

e-mail: Saparbayeva_E@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-7031-7424>

Annotatsiya.

Maqolada 1944-yilgi majburiy ko'chirishdan so'ng O'zbekistonning Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida joylashgan mesxeti turklari jamoasining tarixiy taqdiri davriy-qiyosiy usulda tadqiq etiladi. Sovet davri (1950–1990) hamda mustaqillik davri (1991–2025) alohida tahlil qilinib, moslashuv modeli, iqtisodiy funktsiya, demografik dinamika va etnik munosabatlar mezonlari bo'yicha o'zaro qiyoslanadi. Jamoaning g'arbiy vohalar xo'jaligidagi vositachilik hamda tadbirkorlik roli, 1989-yilgi Farg'ona fojiasining geografik assimetriyasi va undan keyingi "etnik ko'rinmaslik" strategiyasi xalqaro ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Muallif jamoa taqdirini belgilagan hal qiluvchi omil sifatida hududiy geografiyani ko'rsatadi hamda moslashuv vektorining integratsiyadan assimilyatsiya tomon siljiganini asoslaydi.

Kalit so'zlar: mesxeti turklari, axiska turklari, deportatsiya, Buxoro, Samarqand, Navoiy, moslashuv, assimilyatsiya, etnik munosabatlar, hududiy taraqqiyot.

ИСТОРИЯ РОЛИ ТУРОК-МЕСХЕТИНЦЕВ В ТЕРРИТОРИАЛЬНОМ РАЗВИТИИ (НА ПРИМЕРЕ СРЕДНЕГО И НИЖНЕГО ЗАРАФШАНА)

Сапарбаева Эркиной Давлатбаевна

Бухарский государственный университет.

Аннотация.

В статье с применением периодико-сравнительного метода исследуется историческая судьба общины турок-месхетинцев, расселившихся в Бухарской, Самаркандской и Навоийской областях Узбекистана после принудительного переселения 1944 года. Отдельно анализируются советский период (1950–1990) и период независимости (1991–2025), которые сопоставляются по таким критериям, как модель адаптации, экономическая функция, демографическая динамика и этнические отношения. На основе международных научных источников освещаются посредническая и предпринимательская роль общины в хозяйственной жизни западных оазисов, географическая асимметрия Ферганской трагедии 1989 года и последовавшая за ней стратегия «этнической невидимости». Автор определяет территориально-географический фактор как ключевой в исторической судьбе общины и обосновывает смещение вектора адаптации от интеграции к ассимиляции.

Ключевые слова: турки-месхетинцы, турки-ахиска, депортация, Бухара, Самарканд, Навои, адаптация, ассимиляция, этнические отношения, территориальное развитие.

THE HISTORY OF THE ROLE OF MESKHETIAN TURKS IN REGIONAL DEVELOPMENT (BASED ON THE EXAMPLE OF THE MIDDLE AND LOWER ZARAFSHAN REGIONS)

Saparbayeva Erkinoy Davlatbayevna

Bukhara State University.

Abstract.

The article examines the historical trajectory of the Meskhetian Turk community settled in the Bukhara, Samarkand, and Navoi regions of Uzbekistan following the forced relocation of 1944, using a period-based comparative approach. The Soviet period (1950–1990) and the independence period (1991–2025) are analyzed separately and compared according to such criteria as adaptation patterns, economic functions, demographic dynamics, and ethnic relations. Drawing on international scholarly sources, the study examines the community's intermediary and entrepreneurial role in the economies of the western oases, the geographical asymmetry of the 1989 Fergana tragedy, and the subsequent strategy of "ethnic invisibility." The author identifies territorial geography as a decisive factor shaping the historical trajectory of the community and argues that the vector of adaptation shifted from integration toward assimilation.

Keywords: Meskhetian Turks, Ahiska Turks, deportation, Bukhara, Samarkand, Navoi, adaptation, assimilation, ethnic relations, regional development.

Kirish. XX asr totalitar tuzumlari amalga oshirgan majburiy ko'chirishlar jahon tarixidagi eng yirik ijtimoiy muhandislik tajribalaridan biri bo'ldi. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston bu jarayonda qabul qiluvchi makon vazifasini o'tadi va o'nlab deportatsiya qilingan xalqlarning yangi vatani bo'lib qoldi. Koreyslar, qrim tatarlari, nemislar, chechen va ingushlar qatorida 1944-yilda Gruziya janubidagi Mesxetiya o'lkasidan surgun qilingan turkiyzabon musulmon jamoa ham respublika hududiga joylashtirildi. Yangi O'zbekiston sharoitida millatlararo totuvlik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bir paytda, mamlakatda istiqomat qilib kelayotgan har bir etnik jamoaning tarixiy tajribasini xolis ilmiy o'rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

Mesxeti turklari deportatsiya qilingan xalqlar orasida eng kam o'rganilganlaridan biridir. Mavjud tarixshunoslikning jiddiy kamchiligi uning «Farg'ona markaziligi»dir, ya'ni jamoa tarixi asosan 1989-yilgi fojia prizmasi orqali talqin etiladi. Bunday yondashuv O'zbekistonning g'arbiy va markaziy vohalaridagi, birinchi navbatda, Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi jamoalar tajribasini soyada qoldiradi. Holbuki, aynan shu uch viloyat 1989-yildan keyin mamlakatda saqlanib qolgan mesxeti turklarining asosiy makoniga aylandi va jamoaning uzoq muddatli omon qolish modelini shakllantirdi.

Tadqiqotning obyekti O'zbekistonning Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida istiqomat qiluvchi mesxeti turklari jamoasi, predmeti esa ushbu jamoaning hududiy taraqqiyotdagi ishtiroki, ijtimoiy moslashuv modellari hamda mahalliy aholi bilan munosabatlarining davriy evolyutsiyasidir. Maqsad ikki tarixiy bosqichni yaxlit qiyosiy tahlil qilish orqali jamoa taqdirini belgilagan tub omillarni aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi. Birinchidan, jamoaning g'arbiy vohalarga joylashish mantig'ini ochib berish. Ikkinchidan, sovet davridagi xo'jalik va ijtimoiy integratsiya mexanizmlarini tavsiflash. Uchinchidan, mustaqillik davridagi demografik va identiklik o'zgarishlarini tahlil qilish. To'rtinchidan, ikki davrni ilmiy asoslangan mezonlar tizimi bo'yicha qiyoslash. Xronologik doira 1950-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrni, hududiy doira esa hozirgi ma'muriy chegaralardagi uch viloyatni qamrab oladi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, unda ilk bor mesxeti turklari tarixi viloyatlar kesimida, davrlashtirilgan qiyosiy sxema asosida va zamonaviy moslashuv nazariyalari vositasida o'rganilmoqda. Bu esa mavzuni umumiy deportatsiya tarixidan mintaqaviy ijtimoiy tarix maydoniga olib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mavzuga oid tarixshunoslikni shartli ravishda to'rt yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish Rossiya hujjatshunoslik maktabidir. N. F. Bugayning ko'p yillik izlanishlari deportatsiya mexanizmini, maxsus ko'chirish rejimini va reabilitatsiya jarayonining huquqiy bosqichlarini arxiv hujjatlari asosida tikladi [3, 4]. P. M. Polyan majburiy migratsiyalar geografiyasini tizimlashtirgan bo'lsa [2], N. L. Pobol va P. M. Polyan tuzgan hujjatlar to'plami 1944-yilgi qarorlar matnini ilmiy muomalaga kiritdi [1]. Ushbu maktabning kuchli tomoni hujjatiy asos bo'lsa, zaif tomoni Markaziy Osiyo mintaqaviy kesimining deyarli yo'qligidir.

Ikkinchi yo'nalish etnologik-huquqiy tadqiqotlardan iborat. A. G. Osipov jamoaning etnogenezi atrofidagi ilmiy bahsni, ya'ni turkiy kelib chiqish va islomlashgan gruzin kelib chiqishi konsepsiyalarining qarama-qarshiligini tahlil qildi hamda Krasnodar o'lkasidagi diskriminatsiya amaliyotini hujjatlashtirdi [5]. Uchinchi yo'nalish turk tarixshunosligi bo'lib, S. Büntürk, R. Bayraktar va M. Üren asarlarida jamoa tarixi milliy identiklik, diaspora va geosiyosat nuqtayi nazaridan yoritildi [12, 13, 14]. A. Aydingün esa jamoani Kavkazdagi potensial ziddiyat manbai sifatida emas, balki ko'p qatlamli identiklik sohibi sifatida talqin qilib, xalqaro ilmiy diskursga jiddiy hissa qo'shdi [6, 7].

To'rtinchi yo'nalish Yevropa amaliy tadqiqotlari markazlarining ishlaridir. Yevropa ozchiliklar masalalari markazi (ECMI) 2004–2011-yillarda jamoaning barcha yashash mamlakatlaridagi ahvolini qamrab olgan uch yirik loyihani amalga oshirdi [8, 9, 10]. S. Swerdlow AQSH ko'chirish dasturining huquqiy tahlilini berdi [11], Minority Rights Group esa O'zbekistondagi jamoa bo'yicha eng ko'p iqtibos qilinadigan ma'lumotnoma profilini yaratdi [16]. F. B. Aydemir Baş Farg'ona voqealarining Turkiya matbuotidagi in'ikosini o'rgandi [15].

O'zbek milliy tarixshunosligida mavzu asosan qatag'on qurbonlari xotirasi va deportatsiya qilingan xalqlar umumiy kontekstida uchraydi, biroq mesxeti turklariga bag'ishlangan maxsus monografik tadqiqot hozircha yaratilmagan. Manbaviy jihatdan yana bir muhim cheklov mavjud. O'zbekistonda 1989-yildan buyon aholi ro'yxati o'tkazilmagani bois viloyatlar kesimidagi etnik statistika faqat xalqaro baholashlar shaklida mavjud [16]. Shu tariqa tarixshunoslikda ikki bo'shliq aniq ko'rinadi. Bular viloyat darajasidagi tadqiqotlarning yo'qligi hamda jamoaning mintaqa taraqqiyotiga qo'shgan hissasining baholanmaganidir. Mazkur maqola aynan shu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotning manbaviy bazasi uch guruhga bo'linadi. Birinchi guruhni normativ hujjatlar, ya'ni 1944-yilgi qaror hamda 1956-yilgi farmon matnlari tashkil etadi [1]. Ikkinchi guruhga sovet ro'yxatlari ma'lumotlari va xalqaro tashkilotlarning baholash hisobotlari kiradi [8, 16]. Uchinchi guruhni monografiyalar hamda ilmiy maqolalar tashkil qiladi. Uch guruh ma'lumotlarini o'zaro solishtirish xulosalar ishonchligini oshiradi va bir tomonlama talqin xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

METODOLOGIYA. Tadqiqot tarixiylik, obyektivlik va tizimlilik prinsiplariga tayanadi. Ishning asosiy metodologik o'zagini davriy-qiyosiy tahlil tashkil etadi. Davrlashtirishda 1991-yil suvayirg'ich sifatida qabul qilindi, chunki mustaqillik siyosiy tuzum, iqtisodiy tizim va etnik siyosat muhitini tubdan o'zgartirdi. Har bir yirik davr ichida kichik bosqichlar ham farqlanadi. Sovet davri maxsus ko'chirish rejimi (1944–1956), nisbiy barqarorlashuv (1956–1989) hamda 1989-yilgi uzilish bosqichlarini o'z ichiga oladi. Mustaqillik davri esa ommaviy chiqib ketish (1990-yillar), sokin barqarorlik (2000–2016) va institutsional yangilanish (2017–2025) bosqichlariga bo'linadi. Nazariy asos sifatida uch konseptual model jalb qilindi. J. Berrining akkulturatsiya nazariyasi moslashuvning to'rt strategiyasini, ya'ni integratsiya, assimilyatsiya, separatsiya va marginalizatsiyani farqlash imkonini beradi [18]. E. Bonacichning «vositachi ozchilik» konsepsiyasi jamoaning savdo va vositachilik sohasidagi tarixiy ixtisoslashuvini izohlaydi [19]. J. Alexanderning madaniy travma nazariyasi hamda M. Hirschning «postxotira» tushunchasi 1989-yil fojiasining jamoa

ongidagi uzoq muddatli asoratlarini tahlil qilishga xizmat qiladi [20, 21].

Manbaviy tanqid metodi xalqaro baholashlardagi raqamli tafovutlarni solishtirish, ularni triangulyatsiya qilish va ehtiyotkor ilmiy til bilan taqdim etishni taqozo etdi. Rasmiy statistika cheklanganligi sharoitida sifat ko'rsatkichlariga tayangan tahlil ustuvor bo'ldi va bu obyekktiv manba cheklovi sifatida ochiq tan olinadi. Istiqbolda og'zaki tarix usuli, ya'ni jamoa oqsoqollari bilan chuqurlashtirilgan intervyular mazkur metodik bazani to'ldirishi lozim.

Qiyoslash mezonlari tizimi maqsadli ravishda olti yo'nalishni qamrab oladi. Bular huquqiy holat, demografik dinamika, joylashuv geografiyasi, moslashuv modeli, iqtisodiy funksiya hamda etnik munosabatlar va madaniy o'zlikdir. Mezonlarning bunday tarkibi jamoa hayotining institutsional, moddiy va ma'naviy qatlamlarini birdek qamrab olish imkonini beradi hamda qiyosning biryoqlama bo'lishining oldini oladi. Har bir mezon bo'yicha ikki davr holati avval alohida tavsiflanadi, so'ngra umumlashtiruvchi jadvalda yonma-yon qo'yiladi.

ASOSIY QISM. Davlat Mudofaa Qo'mitasining 1944-yil 31-iyuldagi 6279ss-sonli qarori bilan mesxeti turklari kurdlar va hemshinlar qatorida Gruziya SSRdan Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistonga ko'chirildi [1]. Operatsiya 1944-yil 15–17-noyabr kunlari, atigi uch kun ichida amalga oshirildi [17]. Xalqaro adabiyotda ko'chirilganlar soni 90 mingdan 120 minggacha baholanadi, hujjatshunoslik maktabi esa 115 mingdan ortiq kishi haqida ma'lumot beradi [3, 4]. Rasmiy hujjatlarda ularga nisbatan hatto «dushman bilan hamkorlik» aybi ham qo'yilmagan, ko'chirish «chegara xavfsizligi» bahonasi bilan asoslangan edi [16]. Ilk yillardagi ochlik, sovuq va epidemiyalar jamoaga og'ir demografik talafot yetkazdi. 1956-yil aprelida maxsus ko'chirish rejimi bekor qilindi, biroq qrim tatarlari va nemislar singari mesxeti turklariga ham vatanga qaytish huquqi berilmadi [1, 17]. 1968-yilgi navbatdagi farmon yashash joyini erkin tanlash huquqini rasman tan olgan bo'lsa ham, Gruziyaga qaytish yo'li amalda yopiqligicha qoldi [2, 3]. Ana shu «qaytib bo'lmaslik» holati jamoaning O'zbekistondagi turg'un joylashuvini tarixan belgilab berdi.

Respublika ichidagi joylashuv ikki geografik mantiqqa ega edi. Katta qism Farg'ona vodiysining zich aholili tumanlariga, sezilarli qism esa Zarafshon vodiysi va Buxoro vohasiga, ya'ni hozirgi Samarqand, Buxoro hamda Navoiy hududlariga taqsimlandi. Bu vohalar sug'orma dehqonchilik va paxtachilikning qadimiy o'choqlari bo'lib, urushdan keyingi paxta iqtisodiyoti qo'shimcha mehnat resurslariga keskin muhtoj edi. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi Navoiy viloyati hududlari sovet davrining katta qismida ma'muriy jihatdan Buxoro va Samarqand viloyatlari tarkibida bo'lgan. Viloyat 1982-yilda tashkil etilib, 1988-yilda tugatilgan va 1992-yilda qayta tuzilgan. Shu bois uch viloyatdagi jamoalarni yagona g'arbiy vohalar klasteri sifatida qarash tarixan asoslidir.

Jamoaning mintaqa xo'jaligidagi o'rni ikki qatlamli edi. Rasmiy qatlamda mesxeti turklari kolxoz va sovxozlarning paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik, polizchilik va chorvachilik tarmoqlarida mehnat qildilar. Buxoro vohasining qorako'lchilik va paxtachilik zonalari, Samarqandning bog'-uzumchilik rayonlari, Zarafshon etaklarining sug'orma yerlari ularning asosiy mehnat maydoni bo'ldi. Norasmiy qatlamda esa tomorqa mahsulotini dehqon bozorlarida realizatsiya qilish, mavsumiy savdo va hunarmandchilik rivojlandi. Xalqaro kuzatuvchilar jamoani shaharlashgan, tadbirkor va nisbatan farovon qatlam sifatida tavsiflagani bejiz emas. Bonacich terminologiyasida bu klassik vositachi ozchilik pozitsiyasidir [19]. Buxoro va Samarqand kabi ming yillik savdo shaharlari bunday ixtisoslashuv uchun tabiiy institutsional muhit yaratdi. Shu tariqa jamoa reja iqtisodiyotining mehnat resursi bo'lish bilan birga, mahalliy bozor xo'jaligining faol subyektiga aylandi va vohalarning oziq-ovqat ta'minoti zanjirida sezilarli o'rin egalladi.

Ijtimoiy-madaniy moslashuv Berri modelidagi integratsiya strategiyasiga muvofiq kechdi [18]. Sunniy islom va turkiy til yaqinligi mahalliy o'zbek muhiti bilan qo'shnichilik, oshnalik va iqtisodiy hamkorlik rishtalarini tez mustahkamladi. Jamoada uch tillilik, ya'ni oilada axiska turkchasi, mahallada o'zbek tili va rasmiy muomalada rus tili amal qildi. Ayni paytda ichki endogamiya, urf-odatlar va vatan xotirasi saqlanib qoldi. 1960-yillardan boshlangan vatanga qaytish harakati, keyinchalik 1990-yilda tuzilgan «Vatan» jamiyati faoliyati jamoaning siyosiy o'zligini shakllantirdi [4, 17], biroq g'arbiy vohalardagi guruhlar bu harakatda vodiy jamoalariga nisbatan mo'tadilroq ishtirok etdi.

Mahalliy aholi bilan munosabatlar tizimida an'anaviy ijtimoiy institutlar alohida rol o'ynadi. Mahalla muhiti, hashar odati, to'y-ma'raka almashinuvi va qo'shnichilik axloqi kelgindi jamoani kundalik hayot to'qimasiga tabiiy ravishda kiritib bordi. Sovet ro'yxatlari oralig'ida jamoaning barqaror demografik o'sishi ijtimoiy muhitning nisbatan qulayligidan dalolat beradi. G'arbiy vohalarda yer va suv resurslari ustidagi raqobat vodiy darajasiga yetmagani bois etnik chegara kundalik hayotda deyarli sezilmas edi, ziddiyatli epizodlar esa maishiy doirada qolib, ommaviy tus olmadi. Shu ma'noda vohalar jamiyati mesxeti turklari uchun sinov maydoni emas, balki qabul qiluvchi muhit vazifasini bajardi, degan xulosa o'zini to'la oqlaydi.

Ushbu bosqich 1989-yil may–iyun oylarida Farg'ona vodiysida boshlangan ommaviy pogromlar bilan fojiali yakunlandi. Iqtisodiy raqobat, ishsizlik, yer taqchilligi va demografik bosim kuchaytirgan zo'ravonlik natijasida rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, yuzdan ortiq kishi halok bo'ldi, mingdan ziyodi jarohatlandi, yetti yuzdan ortiq xonadon vayron etildi va 60 mingdan ortiq kishi respublikani zudlik bilan tark etdi [15, 16]. Tarixiy jihatdan hal qiluvchi jihat shundaki, zo'ravonlik geografik jihatdan vodiy bilan chegaralandi. Buxoro, Samarqand va Navoiy vohalari fojia to'lqinidan chetda qoldi, ayrim oilalar vodiydagi qarindoshlariga boshpana ham berdi. Natijada g'arbiy vohalar jamoaning «omon qolgan o'zagi» vazifasini o'tadi va keyingi davr tarixining tayanch nuqtasiga aylandi.

1989-yil jamoa tarixining suvayirg'ichi bo'ldi. O'sha yilgi Butunittifoq ro'yxatiga ko'ra, SSSRda 207 mingdan ortiq mesxeti turki yashagan bo'lib, ularning eng katta qismi, taxminan 106 ming kishi O'zbekistonga to'g'ri kelardi. Pogromlardan keyingi evakuatsiya va 1990-yillar boshidagi davomiy chiqib ketish natijasida jamoaning yana o'n minglab vakili Ozarbayjon, Rossiya, Qozog'iston va Qirg'izistonga ko'chib o'tdi. ECMI baholashiga ko'ra, 2000-yillar boshida mamlakatda 15 mingdan kam kishi qolgan edi, keyingi hisob-kitoblar esa 22 ming atrofidagi raqamni keltiradi [8, 16]. Eng muhimi, qolgan jamoa aynan Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida jamlandi, kichikroq guruhlar

Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo va Toshkent hududlarida qayd etiladi. Shu tariqa mustaqillik davridagi mesxeti turklari tarixi mohiyatan uch g'arbiy viloyat tarixiga aylandi.

Moslashuv modeli tubdan o'zgardi. Integratsiya o'rnini assimilyatsiyaga yaqin strategiya, aniqrog'i, «etnik ko'rinmaslik» siyosati egalladi. Xalqaro kuzatuvlar qolgan jamoa vakillari kundalik hayotda asosan o'zbek tilida so'zlashishini, etnik kelib chiqishini oshkor etmaslikka intilishini va o'zbek ko'pchiligi orasiga singib borishini qayd etadi. Alexander nazariyasi nuqtayi nazaridan bu 1989-yil madaniy travmasiga berilgan ratsional javob edi [20]. Xavfsizlik etnik ko'rinuvchanlikni kamaytirish evaziga ta'minlandi. Til va din yaqinligi bu jarayonni g'arbiy vohalarda ayniqsa silliq kechirdi, aralash nikohlar esa singishuvni yanada chuqurlashtirdi. Uchinchi va to'rtinchi avlod uchun Mesxetiya endi bevosita xotira emas, balki Hirsch ta'biri bilan aytganda, postxotira, ya'ni ota-bobolar hikoyalari orqali yetib kelgan meros makoniga aylandi [21].

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jamoaning an'anaviy tadbirkorlik salohiyatiga yangi maydon ochdi. Kolxoz tizimi o'rnini oilaviy fermer va dehqon xo'jaliklari, bozor savdosi hamda xizmat ko'rsatish sohasi egalladi. Buxoro va Samarqandning jadal rivojlangan turizm iqtisodiyoti savdo, umumiy ovqatlanish va hunarmandchilik bo'g'inlarida qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. Navoiyning sanoat-agrar muhiti esa ish bilan bandlikning muqobil kanallarini taqdim etdi. Sovet davridan farqli jihat shundaki, iqtisodiy faollik endi jamoaviy emas, balki individual-oilaviy xarakter kasb etdi. Vositachi ozchilik funksiyasi esa tuzum o'zgarishiga qaramay saqlanib qoldi va bu jamoaning mintaqa taraqqiyotiga qo'shayotgan eng barqaror hissasi bo'lib qolmoqda.

Madaniy hayotda jamoa milliy madaniy markazlar faoliyatini saqlab qoldi, garchi bu faoliyat uzoq vaqt davlatning sezilarli moddiy ko'magisiz kechgan bo'lsa ham. 2017-yilda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi etnik ozchiliklar madaniy faoliyati uchun yangi institutsional muhit yaratdi va bu jarayondan turk madaniy markazlari ham bahramand bo'ldi. Transmilliy o'lchov jamoa hayotining ajralmas qismiga aylandi. Turkiya 1992-yilgi maxsus qonun asosida axiska turklarining bir qismini qabul qildi [12, 14], AQSH 2004–2007-yillarda Krasnodar o'lkasidan o'n mingdan ortiq kishini ko'chirib oldi [11], Gruziya esa 1999-yilgi Yevropa Kengashi majburiyati va 2007-yilgi repatriatsiya qonuniga qaramay, amalda juda oz sonli qaytishga imkon berdi [10]. Ushbu global tarmoq O'zbekistondagi jamoa uchun qarindoshlik, nikoh va iqtisodiy aloqalar kanali bo'lib xizmat qilmoqda hamda milliy o'zlikni saqlashning muqobil mexanizmiga aylandi. Ayni paytda tarixiy vatanga qaytish istiqboli xira bo'lgani sari g'arbiy vohalar jamoa uchun amaldagi yagona barqaror vatan maqomini mustahkamlab bormoqda.

So'nggi o'n yillikda umumiy ijtimoiy muhit yanada yumshadi. Ochiqlik siyosati, turizmning jadal yuksalishi va Turkiya bilan har tomonlama yaqinlashuv turkiy madaniy merosga qiziqishni kuchaytirdi hamda jamoaga o'z an'analarini ehtiyotkorona bo'lsa-da, ochiqroq namoyish etish imkonini berdi. Shunga qaramay, avlodlararo til siljishi chuqurlashib bormoqda. Keksa avlod axiska shevasini saqlab qolgan bo'lsa, yosh avlod uchun asosiy muloqot vositasi o'zbek tiliga aylandi va ona shevasi ko'pincha oilaviy marosimlar tilida yashab qolmoqda. Mahalliy aholi bilan bugungi munosabatlar past ziddiyatli, sokin barqarorlik holatida bo'lib, jamoa vakillari mahalla faoliyatida, tadbirkorlik sherikligida va aralash nikohlarda faol ishtirok etmoqda. Bu manzara tashqi bosim ostidagi yashirinish emas, balki chuqurlashib borayotgan tabiiy singishuv jarayonining ifodasidir.

TAHLIL

Ikki davrni tizimli qiyoslash quyidagi jadvalda umumlashtirilgan.

Mezon	Sovet davri (1950-1990)	Mustaqillik davri (1991-2025)
Huquqiy holat	Maxsus rejimdan (1956 yilgacha) rasmiy tenglikka o'tish, vatanga qaytish taqiqi	To'liq fuqarolik, biroq etnik ko'rinuvchanlikdan o'zini tiyish
Demografik dinamika	O'sib boruvchi yirik jamoa, 1989 yilda 106 ming kishi	Keskin qisqargan, uch viloyatga jamlangan 15-22 ming kishilik jamoa
Joylashuv geografiyasi	Farg'ona vodiysi va g'arbiy vohalar	Asosan Buxoro, Samarqand, Navoiy vohalari
Moslashuv modeli	Integratsiya, o'zlikni saqlagan holda qo'shilish	Assimilyatsiya va «etnik ko'rinmaslik» strategiyasi
Iqtisodiy funktsiya	Kolxoz mehnati hamda bozor vositachiligi	Individual-oilaviy fermerlik, savdo va xizmatlar
Etnik munosabatlar	G'arbda barqaror, 1989 yilda sharqda portlash	Past ziddiyatli sokin barqarorlik
Madaniy o'zlik	Ochiq etnik o'zlik, uch tillilik	Yashirin o'zlik, o'zbek tiliga siljish, postxotira

Qiyosiy manzaradan to'rt fundamental xulosa kelib chiqadi. Birinchi xulosa geografik omilning hal qiluvchi roliga taalluqlidir. Jamoaning O'zbekistondagi taqdirini siyosat emas, avvalo, geografiya belgiladi. G'arbiy vohalarda yer

resurslari, demografik bosim va mehnat bozori vodiylaridagidek keskin tanglik holatida emas edi, shu bois 1989-yilgi portlashning tarkibiy shartlari bu yerda yetilmadi. Buxoro, Samarqand va Navoiy jamoa uchun o'ziga xos refugium, ya'ni tarixiy boshpana hududi vazifasini bajardi. Vodiylar fojiasi va vohalar barqarorligi o'rtasidagi bu assimetriya jamoa tarixini yagona milliy syujet sifatida emas, balki mintaqaviy trayektoriyalar yig'indisi sifatida o'qish zarurligini isbotlaydi.

Ikkinchi xulosa moslashuv vektorining evolyutsiyasiga oiddir. Berri modelida integratsiya eng sog'lom strategiya hisoblanadi, assimilyatsiya esa ko'pincha tashqi bosim mahsulidir [18]. Mesxeti turklari misolida integratsiyadan assimilyatsiyaga siljish jamoa tanlovining erkin natijasi emas, balki 1989-yil travmasi, tanqidiy demografik massaning yo'qolishi hamda titul millat tili nufuzining ortishi birgalikda shakllantirgan majburiy ratsionallik edi. Bu o'rinda sukut saqlash ham xotira amaliyotining bir shakli sifatida namoyon bo'ladi. Jamoa o'z tarixini unutgani uchun emas, balki eslash xavfli tuyulgani uchun jim qoldi va bu holat madaniy travma nazariyasining klassik ko'rinishidir [20].

Uchinchi xulosa iqtisodiy funksiyaning davrlararo barqarorligiga tegishlidir. Reja iqtisodiyoti sharoitida ham, bozor sharoitida ham jamoa vositachi ozchilik o'rnini egallab keldi [19]. Tomorqa mahsulotidan dehqon bozorigacha, oilaviy fermerlikdan turizm xizmatlarigacha bo'lgan zanjirda ular vohalar iqtisodiyotining kapillyar tomirlarini to'ldirib turdi. Ushbu hissaning rasmiy statistikada aks etmasligi uning yo'qligini emas, balki jamoaning ijtimoiy ko'rinmasligi tarixshunoslik ko'rinmasligiga aylanganini bildiradi. Tipologik qiyos ham fikrimizni quvvatlaydi. Koreyslar O'zbekistonda institutsional diaspora qurdi, qrim tatarlari ommaviy ravishda vataniga qaytdi, nemislar asosan Germaniyaga ko'chib ketdi. Mesxeti turklari esa vatan eshigi yopiq qolgan yagona yirik deportatsiya jamoasi sifatida tarqoqlik va singishuv yo'lini bosib o'tdi. Demak, moslashuv modelini belgilovchi tub o'zgaruvchi «vatan omili», ya'ni qaytish imkoniyatining mavjudligi yoki yo'qligidir.

To'rtinchi xulosa etnik munosabatlar modeliga oiddir. Vohalar tajribasi millatlararo tinchlik, avvalo, resurslar muvozanati va kundalik ijtimoiy institutlar mahsuli ekanini ko'rsatadi. Farg'ona fojiasi etnik adovatning muqarrar natijasi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy tanglikning etnik shakl olgan portlashi edi. G'arbiy vohalarda xuddi shu ikki xalq o'rtasida ziddiyat emas, hamkorlik ustuvor bo'ldi va bu ikki vaziyatni yonma-yon qo'yish etnik omilning o'z-o'zidan nizo manbai emasligini yaqqol isbotlaydi. Bundan kelib chiqadigan amaliy saboq shuki, millatlararo barqarorlikni ta'minlashda ramziy tadbirlardan ko'ra bandlik, yer-suv resurslari va ijtimoiy adolat masalalari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mesxeti turklari tajribasi ana shu qonuniyatning tarixiy tasdig'i sifatida O'zbekiston ijtimoiy tarixidan mustahkam o'rin oladi.

Umumlashtirib aytganda, to'rt xulosa yagona konseptual manzarani hosil qiladi. Geografiya jamoani saqlab qoldi, travma uning moslashuv yo'nalishini o'zgartirdi, iqtisodiy funktsiya davomiylikni ta'minladi, resurs muvozanati esa tinchlikni kafolatlaydi. Ushbu to'rtlik mesxeti turklari tajribasini deportatsiya qilingan xalqlar tarixining alohida tipologik modeli sifatida ajratib turadi. Model markazida vatanidan mahrum etilgan, biroq yangi makonda o'z iqtisodiy va ijtimoiy o'rnini topa olgan jamoaning tarixiy irodasi yotadi. Ana shu iroda Buxoro, Samarqand va Navoiy vohalarining ko'p asrlik bag'rikenglik an'anasi bilan uyg'unlashib, hozirgi sokin barqarorlikning tarixiy poydevorini yaratdi.

XULOSALAR. O'tkazilgan tadqiqot quyidagi ilmiy xulosalarni asoslash imkonini beradi. Birinchidan, Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlari mesxeti turklari tarixida ikkilamchi emas, markaziy o'rin tutadi, chunki 1989-yildan keyin jamoaning respublikadagi asosiy o'zagi aynan shu vohalarda saqlanib qoldi. Ikkinchidan, sovet davrida jamoa integratsiya modeli asosida vohalar paxta xo'jaligi va bozor tizimiga chuqur singib, mintaqa iqtisodiyotining sezilarli subyektiga aylandi. Uchinchidan, mustaqillik davrida moslashuv vektori travma va demografik qisqarish ta'sirida assimilyatsiya hamda etnik ko'rinmaslik tomon siljidi. To'rtinchidan, jamoaning vositachi-tadbirkorlik funksiyasi har ikki tuzumda ham o'zgarmay qoldi va uning hududiy taraqqiyotga qo'shgan eng barqaror hissasini tashkil etdi. Beshinchidan, jamoa taqdirini belgilagan tub omillar geografik joylashuv hamda vatanga qaytish imkoniyatining mavjud emasligi bo'ldi. Oltinchidan, vohalar tajribasi millatlararo barqarorlikning tub asosi resurs muvozanati hamda kundalik ijtimoiy institutlar ekanini ko'rsatadi va bu xulosa bugungi etnosiyosat uchun ham amaliy qimmatga ega.

Tadqiqot istiqbollari sifatida uch viloyat mahalliy arxivlarini ilmiy muomalaga kiritish, jamoa oqsoqollari bilan og'zaki tarix loyihasini amalga oshirish hamda navbatdagi aholi ro'yxati natijalari asosida etnodemografik tahlilni yangilash zarurati alohida qayd etiladi. Shuningdek, uch viloyat muzeylari va oilaviy arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar, fotosuratlar hamda epistolyar meros alohida manbashunoslik tadqiqotiga loyiqdir. Mesxeti turklarining g'arbiy vohalardagi tajribasi O'zbekiston millatlararo totuvlik modelining tarixiy ildizlarini anglash uchun qimmatli ilmiy material bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сталинские депортации. 1928–1953: документы / сост. Н. Л. Поболь, П. М. Полян; под общ. ред. А. Н. Яковлева. – Москва: МФД; Материк, 2005. – 904 с. – ISBN 5-85646-143-6. – URL: [Электронная библиотека исторических документов](#)
2. Полян П. М. Не по своей воле... История и география принудительных миграций в СССР. – Москва: ОГИ; Мемориал, 2001. – 328 с. – URL: [Электронный каталог библиотеки «Мемориала»](#)
3. Бугай Н. Ф. Турки из Месхетии: долгий путь к реабилитации (1944–1994). – Москва: Издательский дом «РОСС», 1994. – URL: [Электронная библиотека исторических документов](#)
4. Бугай Н. Ф. Турки-месхетинцы в России: выбор пути, перспектива (1990-е – начало 2020-х годов). История в документах. – Москва: Филинь, 2022. – 661 с. – ISBN 978-5-9216-0555-0. – URL: [Институт российской истории РАН](#)
5. Осипов А. Г., Черепова О. И. Нарушение прав вынужденных мигрантов и этническая дискриминация в Краснодарском крае: положение месхетинских турок. – Москва: Информполиграф, 1996. – 111 с. – *Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Siyosat*

URL: [Президентская библиотека](#)

6. Aydingün A. Ahıska (Meskhetian) Turks: Source of Conflict in the Caucasus? // The International Journal of Human Rights. – 2002. – Vol. 6, No. 2. – P. 49–64. – DOI: 10.1080/714003762. – URL: [Taylor & Francis](#)
7. Aydingün A., Balim Harding Ç., Hoover M., Kuznetsov I., Swerdlow S. Meskhetian Turks: An Introduction to Their History, Culture and Resettlement Experiences. – Culture Profile No. 20 / ed. D. A. Ranard. – Washington, DC: Center for Applied Linguistics, 2006. – URL: [OpenMETU repository](#)
8. Pentikäinen O., Trier T. Between Integration and Resettlement: The Meskhetian Turks. – ECMI Working Paper No. 21. – Flensburg: European Centre for Minority Issues, 2004. – 54 p. – URL: [European Centre for Minority Issues](#)
9. The Meskhetian Turks at a Crossroads: Integration, Repatriation or Resettlement? / ed. by T. Trier, A. Khanzhin. – Berlin; Münster: LIT Verlag, 2007. – 696 p. – ISBN 978-3-8258-9628-7. – URL: [LIT Verlag](#)
10. Trier T., Tarkhan-Mouravi G., Kilimnik F. Meskhetians: Homeward Bound... – Tbilisi: European Centre for Minority Issues – Caucasus, 2011. – 190 p. – ISBN 978-9941-0-3531-9. – URL: [European Centre for Minority Issues](#)
11. Swerdlow S. Understanding Post-Soviet Ethnic Discrimination and the Effective Use of U.S. Refugee Resettlement: The Case of the Meskhetian Turks of Krasnodar Krai // California Law Review. – 2006. – Vol. 94, No. 6. – P. 1827–1878. – DOI: 10.15779/Z38N71N. – URL: [University of California, Berkeley Law Repository](#)
12. Buntürk S. Rus Türk Mücadelesinde Ahıska Türkleri. – Ankara: Berikan Yayınevi, 2007. – XXIV + 472 s. – ISBN 978-975-267-120-1. – URL: [Simurg Kitabevi bibliographic record](#)
13. Bayraktar R. Eski Sovyetlerde Türk Kimliği. – Ankara: Berikan Yayınevi, 2013. – 206 s. – ISBN 978-975-267-862-0. – URL: [CiNii Books bibliographic record](#)
14. Üren M. Kimlik, Çıkar ve Jeopolitik Ekseninde Ahıska Türkleri Sorunu. – Ankara: Nobel Akademik Yayıncılık, 2016. – 518 s. – ISBN 978-605-9663-32-8. – URL: [Kitapyurdu bibliographic record](#)
15. Aydemir Baş F. B. 1989 Fergana Massacre in Turkish Newspapers // Ancient Land. – 2024. – Vol. 6, No. 4. – P. 23–30. – DOI: 10.36719/2706-6185/34/23-30. – URL: [Ancient Land – full article](#)
16. Minority Rights Group International. Meskhetian Turks in Uzbekistan // World Directory of Minorities and Indigenous Peoples. – 2008. – URL: [Minority Rights Group International / Refworld](#)
17. Турки-месхетинцы // Кавказский узел. – 4 февраля 2020 г. – URL: [Кавказский узел](#)
18. Berry J. W. Immigration, Acculturation, and Adaptation // Applied Psychology: An International Review. – 1997. – Vol. 46, No. 1. – P. 5–34. – DOI: 10.1111/j.1464-0597.1997.tb01087.x. – URL: [Wiley Online Library](#)
19. Bonacich E. A Theory of Middleman Minorities // American Sociological Review. – 1973. – Vol. 38, No. 5. – P. 583–594. – DOI: 10.2307/2094409. – URL: [JSTOR](#)
20. Alexander J. C. Toward a Theory of Cultural Trauma // Cultural Trauma and Collective Identity / J. C. Alexander, R. Eyerman, B. Giesen, N. J. Smelser, P. Sztopka. – Berkeley: University of California Press, 2004. – P. 1–30. – DOI: 10.1525/california/9780520235946.003.0001. – URL: [Oxford Academic / University of California Press](#)
21. Hirsch M. The Generation of Postmemory: Writing and Visual Culture After the Holocaust. – New York: Columbia University Press, 2012. – 320 p. – ISBN 978-0-231-15652-3. – URL: [Columbia University Press](#)